



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 13-noyabr

Nº 2063

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Sattarov Omon Ilxamovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Matniyazov Daniyar G'ayratovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Xorazm viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yangibozor tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Egamberdiyev Yunusjon Yusufovich – Sudyaning qasamyodini buzganligi va unga nisbatan sudning ayblovi hukmi qonuniy kuchga kirganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 1,6-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Andijon viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Xonobod shahar sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Yuldashev Sarvarjon Solijonovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Namangan viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Chust tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Ubaydullayev Dilshodjon Muxiddinovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov